

**REZAVOR MEVALARNING ZARARKUNANDALARI, TUR  
TARKIBI, MORFOLOGIYASI, VA OZUQA SPEKTRI**

---

**Yoqubov Abutolib**, o'qituvchi  
Farg'ona davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Farg'ona hududidagi Rezavor mevalarning zararkurandalari haqida ma'lumot keltirilgan.

Ushbu zarakuradalarning miqdoriy ko'rsatkichlari, zarakurandalik xususiyatlar haqiqda qisqacha bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** *Coccinela*, *Adonia vipunetata* L, *Chrysopa Carnea* Stepn, Chrysopidae

**REZAVOR MEVALARNING ZARARKUNANDALARI, TUR  
TARKIBI, MORFOLOGIYASI, VA OZUQA SPEKTRI**

---

Qulupnay nematodasi - *Aphelenchoides fragoriae* kitz. Bos qulupnayning ashshadiy zararkunandalardan hisoblanadi. Mikroskopik ignasimon, shaffof qurtlar, uzunligi 0,5-1 mm, urg'ochi formalari yirik. Nematodalar o'simlik to'qimasida, barg va shoxlar orasidagi qismida yashaydi, ayrim holatlarda kurtak, gul, mevalarning yuza qismida ham uchraydi. Nematodalarni yog'ingarchilik ko'p bo'lgan vaqtlarda, nam havoda tashqi yuza qatlamlarda ko'rish mumkin. Bahorda urg'ochi forma o'simlik to'qimasi orasiga ko'plab tuxum qo'yadi. Tuxumdan chiqqan mayda lichinkalar o'sib, oradan 2 hafta o'tgach, tuxum qo'yishga kirishadi. Vegetatsiya davrida zararkunanda bir necha avlod berganligi sababli, o'simlikning yuza qatlamlarida ham minglab nematodalarni kuzatish mumkin bo'ladi. Zararkunandalar qulupnay soki bilan oziqlanishi natijasida o'z chiqindilari bilan o'simlik to'qimalarini zararlaydi. Nematodalar bilan kuchli zararlangan qulupnay mevasi o'sishdan to'xtaydi, yangi barg va kurtak hosil qilmaydi, gullari deformatsiyaga uchraydi, o'simlik pakana bo'lib qolib, tashqi ko'rinishi o'zgarib ketadi, gullari bandsiz, o'troq bo'lib qoladi. Barglar kasallanganligi tufayli ayrim holatlarda qizil dog'lar paydo bo'ladi. Qulupnay hosildorligi keskin pasayadi, ko'pincha meva hosil qilmaydi, bu holat IV chi oylarning oxiri va V oylarida shuningdek, kuzda IX oylarda yangi barglar chiqara boshlaganda namlikning yuqorilashishi tufayli kuzatiladi. Nematodali ko'chatlarni ekish ularni tarqalishiga sabab bo'ladi. Ayrim holatlarda yomg'ir suvi ko'lob bo'lib oqqanda, o'simlik qoldiqlari, bog'dagi ish qurollari orqali tarqalishini ham kuzatishimiz mumkin. Shu sababli qulupnay ekinini ham almashlab ekish, zararkunanda bilan zararlanish ehtimolini pastlashishiga olib keladi.

**Poya nematodasi.**

Tashqi ko'rinishidan qulupnay nematodasiga o'xshaydi, lekin mikroskop

ostida kuzatilganda erkak formani dum qismida farq kuzatiladi, ya'ni poya nematodasining tana oxiri egilmagan, qulupnay nematodasining tana oxiri qorin tomonga egilgan. Zarar keltirish jihatlari ham bir-biriga juda yaqin, faqat gul qismlarini deformatsiyalamaydi. Poya nematodasi bilan zararlangan o'simlik barglari buralib, tirish hosil qiladi, mevalari maydalashib ketadi, o'simlik "mo'ylovlari" va o'rmalovchi poya shoxlari qizil- qo'ng'ir rangga kiradi. Qurtlar sonini 200dan ortib ketishi o'simlikni o'sishdan orqada qolishiga, barglarini maydalashib, sog'lom barglarga nisbatan och yashil rangga kirishiga, mozaik kasallik singari sarg'ish, yorqin dog'lar hosil bo'lishiga olib keladi. Nematodalar barg to'qimalarida yashab ko'payadi, hujayra shirasi bilan oziqlanib, o'simlikni o'z chiqindilari bilan zararlaydi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar o'simlik to'qimalarida ildiz tomon harakatlanib, u yerdan tuproq qatlamiga o'tadi. Qishlovchi lichinkalar 10-20 sm tuproq qatlami ichida va o'simlik to'qimalari ichida qishlaydi. Qurg'oqchilikka va sovuqqa chidamli, sug'orish davri yoki seryog'in kunlari qurtlar tuproq qatlamlariga chiqib, vaqtincha o'sishdan to'xtaydi, buralib olgan qurtchalar oziqlanmasdan o'z tirikligini saqlab tura oladi. Qulay sharoit kelganda yana o'simlik to'qimalariga o'ta boshlaydi.

#### **Korishinskiy shilliq qurti.**

Bo'yi 5-6 sm, och qo'ng'ir sarg'ish, mayda formalari ko'pincha qora bo'ladi. Mollyuska rangi asosan uning mantiyasi bilan bog'liq. Tuxumdan chiqqan shilliq qurt juda mayda, tiniq, kattaligi 5-7 mm keladi. Turli yosh davrlarida ham qishlaydi, qishlovdan martning birinchi o'n kunligida chiqadi, martning o'rtalaridan havo harorati 15-16 C bo'lganda ular juda ko'payib ketadi. Shilliq qurtlar bir joyda 4-5 ta bo'lib to'planishib olishadi. Shilliq qurtlarni aktivligi tuproq va havo haroratiga bog'liq bo'lib, tuproq namligining ortishi ularni o'simlikni yuqori qismlariga ko'tarilishiga olib keladi. Harorat 14-15 C bo'lganda qurtlar qulupnayga kuchli zarar keltiradi, ular o'simlikni mevalarini ko'plab kemiradi. Yog'ingarchilik davrida esa o'simlikni barg asoslarini kemirib ularni qurishiga sabab bo'ladi. Shilliq oziqa tanlamaydi, suvsiz hayot kechira olmaydi, shu sababli kuzatilgan zonalarda emas, balki xonadondagi qulupnaylarni ham zararlashishini kuzatdik. Tuproq namligida ularning tana vazni kamayib ketsada, uzoq vaqt ochlikka chiday olishiga sabab boladi. Shilliq qurtlar bir mavsumda 3-4 avlod berishi mumkin. Urg'ochi shilliq qurt otalangandag keyin tuxumlarini ham tuproq qatlamlari ostiga zich qilib qo'yadi. Tuxumdan chiqqan shilliq qurt chig'anog'i juda kichik qoramtir tiniq rangli, tanasi rangsiz, 5 mm bo'ladi. IV-V oylarida juda ko'p mayda formalari qulupnay mevalari, poyasi ostida zarar keltiradi. Qulupnayni mevalari terilgandan keyin ham mayda shilliqurtlar qulupnay kosachabarglari ostidan, meva ichidan chiqib, xarakatlanayotganini ko'rish mumkin. Shilliqurtlar dori kam sepilayotgan maydonlarda ko'plab uchraydi. Qulupnayni namlik yuqori, o't bosgan, salqin joylarda

zararlik darajasi yuqori bo'ladi, kuzatilgan maydonlardagi farqni taqqoslash mumkin (Qulupnayni "Dilbarim" navi).

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Арнолди К.В. Арнолди А.В. Определитель насекомых поврежденных дереве. 1960г.

2. Алимджанов Р.А. Полезные и вредные "безпозвоночные животные Узбекистана" Т.Фан. 1967 й.

3. Абашкевич Б.П. Рол многоядных энтомофогов ва агроценозе овощного поле- Сб. Кишенев 1974г.

6. Бей-бийенко. Г.Я. идр. Селскохозяйственная энтомология. Селхозгиз, М.-Л., 1963г.

7. Ботирова. Д., Каххарова Г, Акбаров Д.. - Европа иттифоки мамлакатлари бозорларига қандай қилиб экспорт қилиш керак Тошкент, 2015. - 66 б.

8. Болайев Е.Б, Филатов В.П, Москарова И.С. Естественные регулятори численности вредителей растений-защита растений, Н5. 1977г.

9. Богомбова А.С. Азилов Б. материалы по изучению энтомофогов хлопковой совки. Вредители селскохозяйственных культур Узбекистана и их энтомофогои Т.Фан. 1970г.

10. Бондаренко Н.В. Биологическая защита растений. Л. Колос 1978г.

11. Боголюбова А.С. Адилов Б. Вредители селскохозяйственных культур Узбекистана и их энтомология. Т.Фан. 1960г.

12. Давлетнина А.Г. Тли род Апхис. Л. Узбекистана. Ташкент. Фан, 1964й.

13. Мустафаев С. М. Ботаника Тошкент «Ўзбекистон» 2002

14. Нарзикулов М.Н, Жуманов Б.Ж. Особенности интергрированной борьбы с озимой совков-хлопководство Н12. 1979г.

15. Хужаев Ш.Т. Ўсимликларни зараркундалардан уйғунлашган химоя қилишнинг замонавий усул ва воситалари. Тошкент-2015й.

16. Яхонтов В.В. Екология насекомых. М. Высшая школа 1969г.

### **Foydalanilgan internet saytlari**

1. <http://www.zoodrug.ru>.
2. <http://www.floralworld.ru>
3. <http://www.about-plants.ru>